

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Цян Вэй, Сунь Лисинь	
Исследование перевода в интертекстуальной перспективе: на примере произведений	
А. Платонова	107
Н.Х.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklarida stereotip ifodalar	119
N.A.Mamajonova	
Topishmoqlar – olam manzarasining ikkilamchi nomi sifatida	127
В.А.Гиёсова	
Классификация афазии с лингвистической точки зрения: обзор литературы	130
M.A.Abdusalilova	
Abdulla qodiriyning "mehrobdan chayon" romanida uy-ro'zg'or buyumlariga oid so'zlarning pragmatik tahlili	134
N.A.Xoshimova	
Gender nutqida diskursivlar tadqiqi	138



TOPISHMOQLAR – OLAM MANZARASINING IKKILAMCHI NOMI SIFATIDA

ЗАГАДКИ – ВТОРОЕ НАЗВАНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ

PUZZLES ARE THE SECONDARY NAME OF THE WORLD VIEW

Mamajonova Navruza Ahmadjon qizi

Alfraganus universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada topishmoqlarning olam manzarasining ikkilamchi nomi sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Topishmoqlar insonning bilish faoliyatida, uning tafakkur tarzini shakllantirishda muhim vositalardan bo'lib xizmat qiladi. Topishmoq o'zida inson kognitiv faoliyatida milliy-madaniy realiyalarni aks ettiruvchi va shakllantiruvchi folklor diskursi janridir.

Аннотация

В данной статье анализируется значение загадки как вторичного отражения картины мира. Загадки служат важным средством познавательной деятельности человека и формирования его образа мышления. Загадка — жанр фольклорного дискурса, отражающий и формирующий национально-культурные реалии в познавательной деятельности человека.

Abstract

This article analyzes the importance of riddles as a secondary name of the world view. Riddles serve as important tools in the cognitive activity of a person and in the formation of his way of thinking. Topishmaq is a genre of folklore discourse that reflects and shapes national-cultural realities in human cognitive activity.

Kalit so'zlar: Kommunikativ faoliyat, olamning lisoniy manzarasi, antroposentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, assotsiativ aloqalar, topishmoqlar semantik strukturasi, kognitiv bilim.

Ключевые слова: Коммуникативная деятельность, языковая картина мира, антропоцентрическая парадигма, когнитивная лингвистика, ассоциативные отношения, смысловая структура загадок, когнитивные знания.

Key words: Communicative activity, linguistic view of the world, anthropocentric paradigm, cognitive linguistics, associative relations, semantic structure of riddles, cognitive knowledge.

KIRISH

Bugungi kunda inson kommunikativ faoliyatida o'zi yashab turgan hudud, qadriyatlar, an'analari muhim omillardan sanaladi. Bu esa olamni anglash va idrok qilishning muhim omillaridan biri bo'lmish konseptlar vositasida olamning lisoniy manzarasini til egalari ongida shakllantirgan. Voqelikni aks ettirish so'z vositasidagina emas, balki dastlab insonning tafakkurida yuz beradi. Tafakkurda yuzaga kelgan mental tuzilma insonning lisoniy faoliyatida o'z ifodasini topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Atoqli tilshunos Sh.Safarov antroposentrik paradigmanning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: "Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmanning "atomistik", ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem-struktur yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmanning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalishlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo'ldi". [1]

"Antropotsentrikni asosiy g'oyasi sifatida e'tirof etgan bugungi tilshunoslikda "olam manzarasi", ayniqsa, "olamning lisoniy manzarasi" tushunchalari markaziy o'rinni egalladi. Hozirgi tilshunoslikda ayrim tadqiqotchilar tomonidan "olam manzarasi" terminiga "borliq haqidagi ijtimoiy (shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami" tarzida ta'rif beriladi va olamning ikki, ya'ni 1) bevosita hamda 2) bilvosita manzaralarini farqlash pritsipial ahamiyatga molikligi ta'kidlanadi". [2]

NATIJALAR

Topishmoqlarda fikrlash faoliyatining natijasida noma'lum voqelikning ma'lum voqelikka aylanishi uchun ifodada yashirin semantik komponent ishtirok etadi, ya'ni topishmoqda so'zlovchi nazarda tutgan axborot oshkora bayon qilinmasdan, yashirin mazmun ko'rinishlaridan iborat bo'ladi. Topishmoqlar insonning bilish faoliyatida, uning tafakkur tarzini shakllantirishda muhim vositalardan bo'lib xizmat qiladi.

Voqelikdagi predmet va hodisalarni bilish, idrok qilish qator mantiqiy – ruhiy harakatlarni o'z ichiga olgan tarkibli faoliyatdir. Bu faoliyatning dastlabki bosqichini, albatta, ma'lum bir obyektning o'ziga ma'lum bo'lgan boshqa obyektlar bilan qiyoslash harakati tashkil qiladi.

Topishmoq markazidan inson atrofidagi olam, tabiat va maishiy hayot o'rin oladi. Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda unda madaniyatning tarixiy va zamonaviy jihatlarini aks ettiruvchi mazmuniy jihatlar aks etadi. An'anaviy topishmoqlarda ham, zamonaviy topishmoqlarda ham insonning maishiy hayoti va faoliyati, uni o'rab olgan tabiat olami mavzusi dolzarb sanaladi. Masalan, mehnat qurollari haqidagi topishmoqlarda *omoch*, *bolta*, *tesha* kabilar qatoriga elektr asboblari kabilar ham qo'shilganligini ko'rish mumkin.

Topishmoq o'zida inson kognitiv faoliyatida milliy-madaniy realiyalarni aks ettiruvchi va shakllantiruvchi folklor diskursi janridir. Topishmoqlarda ifodalanayotgan konseptlarning leksik verbalizatsiyasi real voqelikning ikkilamchi nominatsiyasi sifatida yuzaga keladi.

Topishmoq xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biridir. «Topishmoq jahon xalqlari ijodi, sivilizatsiya tarixida maqollar bilan bir davrda paydo bo'lgan qadimiy janr namunalaridir».[3] Topishmoqlarning kelib chiqish tarixi tadqiqotchilarni ko'pdan qiziqtirib keladi. Jumladan, V.P.Anikin topishmoqlarning kelib chiqishini baliq ovlovchilar, chorvadorlarning sirli nutqi, tabu va boshqacha so'zlashlarda ko'radi. [4]

MUHOKAMA

Turkiy tillardagi topishmoqlarning til xususiyatlarini o'rgangan tadqiqotchilar ham sirli nutq va topishmoq o'rtasidagi bog'liqlik xususida so'z yuritadilar. [5] Ularning fikricha, qadimgi sirli nutqda ishlatilgan shartli atamalar, tabular bilan topishmoq o'rtasida o'xshashlik, moslik bor. Masalan *babay* so'zi sirli nutqda *ayiq* ma'nosini bildirgan. Boshqird xalq topishmog'ida ham *ayiq babay* obrazi orqali berilgan: *Qara urmandyn esyda yasy taban babayym yata*. (Ayuy). [6] *Qamchi* so'zi sirli nutqda ilonni bildirgan. Ozarbayjon xalq topishmog'ida ilonning obrazli atamasi sifatida *qamchi* keltirilgan: *Bir gamchim var, elima ala bilmaram*. (Ilan). O'zbek xalq topishmog'ida ham ilonning *qamchi* obrazi orqali berilishi kuzatiladi: *Yer tagida yog'li qamchi*. (Ilon).

Ko'rinib turganiday, topishmoqlarda til va tafakkur, insonning bilish jarayonidagi qiyoslash va taqqoslash jarayonining uzviyligi muhim omillardan sanaladi. Bu jarayon inson ongidagi kognitiv bilim va topishmoqlar tarkibidagi leksik birliklarning assotsiatsiyasiga asoslanadi. Assotsiativ aloqalar esa insonning o'zi mansub bo'lgan tarixiy sharoit asosidagi hayotiy va bilim tajribalariga asoslanadi.

Oddiygina topishmoqlar javobini topish jarayonini ko'z oldimizga keltiraylik. "Topishmoqlar" to'plamidagi "Odam, uning a'zolari va xislatlari haqida" mavzuiy guruhidagi ayrim topishmoqlarni tahlilga tortamiz. *Oxurda ola buzoq o'ynaydi* (Ko'z). Ushbu topishmoqni topish jarayonida inson ongidagi bilimlar zaxirasida ko'z haqidagi muhim belgilar ajratiladi:

<i>oxur</i>	ko'z kosasi –o'rin belgisi, ya'ni ko'zning ko'z kosasi ichida joylashganligi;
<i>ola buzoq</i>	oq-qora - rang belgisi, shuningdek buzoqdek silliqlik - shakliy va "namlik" – xususiyat belgisi;
<i>o'ynamoq</i>	harakat belgisi, ya'ni ko'zning doimo harakatda bo'lishi topishmoq mazmuniy mundarijasidan o'rin olgan.

- Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida bir predmet yoki hodisa haqida bir necha topishmoqlar mavjud. Masalan, ko'z haqida yuqorida ta'kidlangan to'plamda 13 ta topishmoq (203-215-raqamlar ostida) keltirilgan. (4) Masalan, *Kechasi yopiq, Kunduzi ochiq* (Ko'z). Ushbu topishmoqda esa ko'zning quyidagi belgilari ajratilishi muhimdir:

- harakat belgisi - yopilish-ochilib turishi;
- xususiyat belgisi – insonning kechasi uyquda, kunduzi bedor bo'lishi;
- insonning uyqudaligi yoki uyg'oqligini bildiruvchi muhim a'zo ekanligi.

TILSHUNOSLIK

- Ko'rinib turganiday, ko'z haqidagi 1-topishmoqda jumboqlanayotgan predmetning o'rin, rang, xususiyat belgilari aytilsa, 2-topishmoqda jumboqlanayotgan predmetning harakat va vazifa belgilari keltirilgan.

- Qayd etilgan kognitiv bilimlar oxurdagi ola buzoqqa o'xshatilgan obyektни aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Inson ko'z haqidagi kognitiv bilimlarini topishmoqdagi o'xshatishli qo'llanish bilan solishtiradi, uning o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlaydi. Obyektning o'xshashlik belgilari topishmoqning yechimi uchun xizmat qiladi. Inson tafakkurida amalga oshiriladigan bu mantiqiy-ruhiy harakatlar topishmoqda yashiringan obyektни aniqlashga imkon beradi.

Topishmoqlar semantik strukturasi, konseptning lisoniy reallashuvida jumboqlanayotgan predmetning qaysi belgisiga asoslanishi nuqtayi nazaridan ham bir-biridan farq qiladi. Bu kabi masalalar galdagi tadqiqotlarimizning asosi sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 35.
2. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent., 2015. №3.
3. Тайлор Э.Н. Первобытная культура. - М., 1989. - 644-б.
4. Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. - М., 1957. -56-б.
5. Надршина Ф.А. Афористические жанры башкирского фольклора (пословицы, загадки): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Уфа, 1971. -13-б.; Ахундова Гюлшен Ислам кызы. Кўрсатилган манба.. - 9-б.
6. Жуков К.А. Языковая картина мира современной русской загадки: бренное и вечное. ВЕСТНИК НОВГОРОДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА. Новгород, 2009. №51.
7. Husainova Z. Topishmoqlar. – Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.